

YOSHLAR OVOZI

Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy,
adabiy-badiiy
gazeta

BIZ – KELAJAK BUNYODKORIMIZ!

#50 (16704)
2025–yil 17–dekabr,
chorshanba



/yoshlarovozi

/yoshlarovozi

/yoshlarovozi.uz

Gazeta 1925–yildan chiqa boshlagan



» 2-bet

O'QUV MARKAZLARI FORUMI

12-13-DEKABR KUNLARI
POYTAXTIMIZDAGI YOSHLAR
IJOD SAROYIDA O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI YOSHLAR ISHLARI
AGENTLIGI TASHABBUSI VA
HAMKOR TASHKILOTLAR
KO'MAGIDA O'ZBEKISTON O'QUV
MARKAZLARI FORUMI BO'LIB O'TDI.
IKKI KUN DAVOM ETGAN TADBIR
MAMLAKATDA TA'LIM XIZMATLARI
BOZORINI RIVOJLANTIRISH,
YOSHLARNING XORIJIY TILLAR
VA ZAMONAVIY KASBLARNI
EGALLASHI UCHUN IMKONIYATLARNI
KENGAYTIRISHGA QARATILDI.

POLOSON

“BESH TASHABBUS
OLIMPIADASI”DA 4 TA
SPORT MAYDONCHASI
YUTIB OLDI

» 2-bet



Birorta ham sport maydonchasi bo'lmagan mahallada uch yil ichida 4 ta sport maydonchasi barpo qilindi. Andijon tumanidagi Poloson mahallasi yoshlarining “Besh tashabbus olimpiadasi” doirasida DXX kubogi uchun o'tkazilgan futbol musobaqalarida erishgan natijalari sabab bugun ular zamonaviy sport maydonlarida shug'ullanmoqda. Mahalladagi yoshlar yetakchisi esa yoshlarga ma'naviy va ijtimoiy ko'mak ko'rsatayotganidan, ularni sog'lom turmush tarzi va sportga keng jalb qilayotganidan mamnun. Bir necha yil avval sport maydonchasi ham, yoshlarni birlashtiradigan aniq tizim ham bo'lmagan Andijon tumanidagi Poloson mahallasida bugun yoshlar uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Ushbu o'zgarishlar markazidagi shaxslardan biri – yoshlar yetakchisi Jasurbek Nasirdinov.

– Har qanday rivojlanish yoshlardan boshlanadi. Mahallada birorta ham yosh e'tibordan chetda qolmasligi kerak, degan tamoyil asosida ishlaymiz. Kimdir sportga mehr qo'ygan bo'lsa, uni qo'llab-quvvatlaymiz, sharoit yaratamiz. Kimdir ilm-fanga qiziqsa, bilimini oshirishi uchun yo'l ko'rsatamiz, hunar o'rganishni istaganlarni ustozlar bilan bog'laymiz. Asosiysi, yosh o'zini yolg'iz his qilmasligi, mahalla uning tayanchi ekanini bilishi kerak, – deydi yoshlar yetakchisi.

510 NAFAR YOSH TAQDIRI

» 2-bet



Neftchi mahallasi yoshlar yetakchisi sifatida faoliyatim mahalladagi 510 nafar yoshlar manfaatlarini, muammolari va kelajagi bilan chambarchas bog'liq. Aholisi 2200 nafar bo'lgan Neftchida savdo va xizmat ko'rsatish asosiy rivojlanish drayveri hisoblanadi. Shu bois yoshlarni aynan shu yo'nalishlarga jalb etishga alohida e'tibor qaratilyapti.

Mahalladagi hokim yordamchisi bilan hamkorlikda tadbirkorlik faoliyatini boshlash istagida bo'lgan 8 nafar ishsiz yoshga imtiyozli kreditlar ajratildi. 5 nafar ishsiz yosh xususiy tashkilotlarga ishga joylashtirildi. Hozir yana 7 nafar yoshning tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yishi, 4 nafar yoshni kasbga o'qitish va qayta tayyorlash bo'yicha aniq dasturlar ishlab chiqilmoqda.



MILLIARDER O'QUVCHILAR

Toshkent shahrida 2025-yilda xalqaro fan olimpiadalarida g'olib bo'lgan o'quvchilar hamda ularning ustozlarini taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi. Tadbirda yurtimiz yoshlarining xalqaro bilim bellashuvlarida erishgan yutuqlari e'tirof etildi.

Joriy yilda o'zbekistonlik o'quvchilar xalqaro fan olimpiadalarida jami 210 ta medalni qo'lga kiritdi. Shundan 40 tasi oltin, 78 tasi kumush va 92 tasi bronza medaliga to'g'ri keladi. Bu natijalar mamlakatda fan ta'limiga qaratilayotgan e'tibor samarasini ko'rsatmoqda.

2025-yilda ilk bor nufuzli xalqaro fan olimpiadalarida oltin medal olgan o'quvchilarga bir milliard so'mdan ortiq pul mukofoti berildi. Xususan, Daler Rahimov va Mirjahon Muhammadov 1 milliard 39 million so'mdan pul mukofotiga sazovor bo'ldi. Ularning ustozlaridan Mohira Boltayeva 591 million so'm miqdorida mukofot oldi.

Xalqaro miqyosda eng nufuzli hisoblangan besh fan olimpiadasida sovrindor bo'lgan o'quvchilar uchun mukofotlar miqdori aniq belgilandi. Oltin medal sohiblari 1 milliard 30

million so'm, kumush medal uchun 618 million so'm, bronza medal uchun esa 412 million so'm berildi. Bu o'quvchilarni tayyorlagan ustozlar ham rag'batlantirildi. Oltin medal uchun 185 million 400 ming so'm, kumush medal uchun 103 million so'm, bronza medal uchun 61 million 800 ming so'm pul mukofoti topshirildi.

Ma'lumotlarga ko'ra, joriy yilda fan olimpiadalari g'oliblariga jami 13 milliard so'm mukofot puli berildi. Taqqoslash uchun, 2024-yilda bu ko'rsatkich 3 milliard 500 million so'mni tashkil etgan edi. Bu raqamlar bilimli yoshlarni qo'llab-quvvatlash borasidagi ishlar izchil davom etayotganini ko'rsatadi.




Aylanma iqtisodiyot resursi

» 3-bet

Toshkent va unga tutash hududlarda chiqindi boshqaruvi muammosi yildan yilga kuchayib boryapti. O'zbekiston bo'yicha har yili o'rtacha 14 million tonna maishiy chiqindi hosil bo'lishiga qaramay, uning atigi 4-5 foizi qayta ishlanadi. Toshkentning o'zida esa yiliga chiqadigan 700 ming tonnadan ortiq chiqindining bor-yo'g'i 18 foizi qayta ishlanadi. Bu ko'rsatkichlar chiqindilarni saralash va ikkilamchi qayta ishlash tizimi yetarli darajada shakllanmaganini ko'rsatadi. Natijada poligonlar tez to'lib, ekologik muammolar yuki oshib boryapti.

Chiqindilarning asosiy qismi to'g'ridan to'g'ri poligonlarga olib boriladi. Bu hududlarda organik chiqindilar parchalanishi natijasida katta hajmda metan gazi ajraladi. Metan barjonat angidrididan 25 barobar kuchli issiqxona gazi bo'lib, global isish jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, poligonlarda filtrlash tizimlarining yetarli emasligi sababli hosil bo'ladigan chiqindi suvlari tuproq qatlamiga singib, yerosti suvlarini ifloslantiradi. Tashlab yuborilgan plastik va shisha kabi materiallar esa aylanma iqtisodiyotning muhim resursi o'laroq barbod bo'lmoqda.



IJTIMOIY TARMOQLAR

GLOBAL
XAVFSIZLIKNING
BIR QISMI

» 3-bet

Bugun dunyo avvalgidan ko'ra bko'proq bog'langan, shu bilan birga ko'proq bo'lingan ham. Mojarolar endi faqat chegaralarda, jang maydonlarida yoki siyosiy minbarlarda emas – telefonlarimizda, ijtimoiy tarmoqlarda, xabarlar tasmasida ham davom etmoqda. Har bir post, sharh yoki layk go'yoki kichik to'liqlar kabi butun jamoalarga ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababdan ijtimoiy tarmoqlar tinchlikni saqlashda eng dolzarb maydonga aylangan.

YANGI JANG MAYDONI...

Har kuni biz ko'rayotgan kontentlarning aksariyati beozor ko'rinishi mumkin. Lekin ba'zan oddiy “mem” yoki manipulyativ video butun jamiyatda nafrat uyg'otib, odamlar o'rtasidagi ishonchni yemiradi. Ijtimoiy tarmoqlarda tarqatilgan yolg'on ma'lumot, agressiv chaqiriqlar yoki nafratli nutqlar real hayotda ham jiddiy oqibatlariga olib kelishi mumkin.



» 4-bet

Ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilarning deyarli bir yildan ortiq davom etayotgan muhokamalariga ishonsak, mobil operatorlarning tarif narxлари ancha oshgan. Jumladan, SMS xabarlar narxi 300 foizga o'sgan. Mobil operatorlar nega o'z xizmatlarini qimmatlashtirgan?

Barcha aloqa kompaniyalari 2022-yilgacha 20 foiz aksiz solig'i to'lagan, 2025-yilga kelib bu soliqdan butkul ozod etilganiga qaramay, ular tariflar narxini sezilarli oshirib borgan. Iqtisodchi Otabek Bakirov ushbu imtiyoz natijasida davlat byudjeti 1,2 trln so'm yo'qotganini, bu summaga esa 50 ta maktab qurish mumkinligini ta'kidlab o'tadi. Ekspertlar fikriga ko'ra, soliq imtiyozlari narxlar pasayishini yoki barqaror holda bo'lishini ta'minlashi kerak.



Forum doirasida yoshlarning kamida ikkita xorijiy tilni puxta o'zlashtirishi va zamonaviy kasbga ega bo'lishini ta'minlash masalalari muhokama markazida bo'ldi. Tadbir ilk bor o'quv markazlari vakillari va ta'lim olishni maqsad qilgan yoshlarni yagona maydonga jamladi. Bugungi kunda mamlakatda 30 mingga yaqin o'quv markazi faoliyat yuritayotgan bo'lsa, forumda ularning 600 dan ortig'i ishtirok etdi.

Tadbirning birinchi kuni maxsus sessiyalar va ochiq muloqotlar bilan boshlandi. Soha yetakchilari o'z tajribasi bilan o'rtoqlashdi, ta'lim sifati va boshqaruv masalalariga doir fikrlar bildirildi. Ishtirokchilar xorijiy tillarni o'qitish, xususi ta'lim muassasalarini rivojlantirish hamda zamonaviy ta'lim modellari yuzasidan savollarga javob olish imkoniga ega bo'ldi.

Forumda hamkor o'quv markazlari rahbarlari ishtirokida taqdimotlar o'tkazildi, hududlardan kelgan vakillar o'z faoliyatida uchrayotgan muammo va yechimlar bo'yicha takliflarini ilgari surdi. Shu bilan birga, yoshlar uchun tajriba almashish muhitini yaratgan uchrashuvlar tashkil etildi.

Forum doirasida bir qator yangi ta'lim loyihalari taqdim etildi. "Mutolaa", "Topcoach", "Qizlar akademiyasi", "Uzchess", "UstozAI", "Zehnly AI", "Ko'mak", "Biz-kombinator" loyihalari ishtirokchilarga tanishtirildi. Ushbu tashabbuslar ta'lim qamrovini kengaytirish va raqamli yechimlarni joriy etishga qaratilgan.

Tadbirda xorijiy tillarni o'rganishni rag'batlantiruvchi "2+6" dasturi ishga tushirilgani e'lon qilindi. Dastur doirasida o'quv markazlari maxsus platforma orqali ro'y-xatdan o'tadi, yoshlar esa bel-

gilangan ilova orqali ariza topshirish imkoniga ega bo'ladi. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, so'nggi besh yil ichida IELTS imtihonidan B2 daraja va undan yuqori natija qayd etgan yoshlar soni 245 mingdan oshgan. Eng yuqori ball olganlar soni esa keskin ko'paygan.

Bugungi kunga qadar xalqaro imtihonlardan yuqori natija ko'rsatgan minglab yoshlarning imtihon bilan bog'liq xarajatlari davlat tomonidan qoplab berildi. So'nggi yillarda ta'lim subyektlari sonining bir necha baravar oshgani, minglab ish o'rinlari yaratilgani va bir milliondan ortiq yosh ta'lim jarayoniga qamrab olingani qayd etildi.

Forumning ikkinchi kuni yakuniy muhokamarlar, "networking" uchrashuvlari va hamkor o'quv markazlari taqdimotlari bilan davom etdi. Tadbir yakunida bildirilgan tashabbuslar va raqamlar ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar yoshlar uchun yangi imkoniyatlar ochayotganini ko'rsatdi.



510 NAFAR YOSH TAQDIRI



Mahalla yoshlarining bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish maqsadida "Besh tashabbus olimpiadasi" doirasida sport va intellektual yo'nalishlarda keng ko'lamli tadbirlar o'tkazib kelinmoqda. Stol tennisi, shaxmat, shashka, voleybol, yengil atletika, stritbol, strit vorkaut, kibersport musobaqalari, "Yoshlar ovozi", "Yosh kitobxon", "Quvnoqlar va zukkolar" tanlovlari, "Zakovat" intellektual o'yinlari yoshlarning iqtidorini yuzaga chiqarishga xizmat qilayapti.

Hamkor tashkilotlar bilan mahallamizga QR kodli stend kutubxona, maktab sport zali uchun futbol, basketbol va voleybol to'plari, shaxmat va shashka jamlanmalari, katta tennis uchun raketkalar olib kelindi. Maqsadimiz aniq: "Besh tashabbus olimpiadasi" g'oliblari safida Neftchi mahallasi yoshlari ham bo'lishi kerak.

Bundan tashqari, mahalla ko'cha sardorlari tashabbusi bilan har shanba va yakshanba kunlari futbol musobaqalari o'tkazilishi yoshlar o'rtasida sog'lom raqobat va birdamlikni kuchaytirilmoqda.

Mahallamizda faoliyat yuritayotgan "Fidokor yoshlar" jamoasi orqali turli ma'naviy-ma'rifiy uchrashuvlar, sport musobaqalari va kitobxonlik kechalari tashkil etiladi. Profilaktika inspektori, xotin-qizlar faollari va yoshlar yetakchisi o'rtasidagi samarali hamkorlik tufayli Neftchi mahallasi bugun jinoyatdan xoli, yashil hudud sifatida e'tirof etilmoqda.

Ekologiya masalasi ham faoliyatimdagi muhim yo'nalishlardan biri. Har oy respublika va viloyat miqyosida o'tkaziladigan obodonlashtirish tadbirlarida faol ishtirok etib, yoshlarni ham jalb etaman. "Obod yurt" ekologik aksiyasi doirasida mahallamizda 25 nafar tashabbuskor yoshdan iborat ekologik harakat guruhi tuzildi. Ular bilan birga hududni tozalash, daraxtlarga suv quyish va obodonlashtirish ishlari olib borildi. Shuningdek, ekologik mavzuda debatlar, viktorinalar va musobaqalar o'tkazish orqali yoshlarda tabiatga mehr va mas'uliyat hissi shakllantirilmoqda.

Olib borilgan ishlar natijasida bir qator yutuqlarga erishildi. Jumladan, "Yilning eng namunali mahalla yoshlar yetakchisi" tanlovining respublika bosqichi ishtirokchisi bo'ldim, 2024-yil 4-chorak yakunlariga ko'ra "Top-100" yetakchilar safidan joy oldim. Oliy Majlis Senati huzuridagi Yoshlar parlament faollari jamoasi va Xalq deputatlari qoshidagi maslahat guruhi a'zosi sifatida faoliyat yuritmoqdaman.

Yoshlar bilan tizimli va maqsadli ishlash orqali mahallada sog'lom muhitni shakllantirish, bandlikni ta'minlash va barqaror rivojlanishga erishish mumkin. Eng muhimi, yoshlar o'ziga ishonib, tashabbus ko'rsatib, jamiyatning faol ishtirokchisiga aylanmoqda.

Bekmurod RASULOV,

Qarshi shahridagi Neftchi mahallasi yoshlar yetakchisi



AVLOD GRANT

Joriy yil 13-dekabr kuni Ilm-fan va ta'lim-tarbiyani rivojlantirish "Ziyo Forum" fondi tashkil etgan "Avlod Grant" loyihasining final bosqichi o'tkazildi. Loyiha oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talaba yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularning kontrakt to'lovlarini qisman qoplashga qaratilgan.

Tanlovda respublikaning turli hududlaridan davlat va nodavlat oliy ta'lim muassasalarida o'qiyotgan talabalar ishtirok etdi. Saralash bosqichlaridan muvaffaqiyatli o'tgan 40 nafar talaba finalda bellashdi. Sinovlar "Kahoot" platformasi orqali onlayn intellektual o'yin shaklida tashkil etilib, ishtirokchilarning bilim darajasi, tezkor fikrlashi va faolligi baholandi.

Yakuniy natijalarga ko'ra, 5 nafar talaba g'olib deb topildi. Ularga ta'lim kontrakti qiymatining 50 foizigacha qismini qoplashni nazarda tutuvchi grant sertifikatlari topshirildi. Loyiha doirasida ajratilgan mablag'larining umumiy miqdori 30 million so'mdan ortiqni tashkil etdi.

Grant mablag'lari faqat ta'lim to'lovlari uchun yo'naltiriladi va bevosita oliy ta'lim muassasalarining hisob raqamlariga o'tkaziladi.

"Avlod Grant" loyihasi "Ziyo Forum" fondining yoshlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan keng ko'lamli tashabbuslaridan biri.

Sirojiddin BOZOROV,
"Ziyo Forum" fondi axborot xizmati rahbari



197 TA MEDAL

Dubay shahrida bo'lib o'tgan V yoshlar Para Osiyo o'yinlari O'zbekiston sport tarixida muhim voqea sifatida qayd etildi. 7-14-dekabr kunlari tashkil etilgan nufuzli musobaqada qit'aning 35 davlatidan 1500 nafarga yaqin sportchi 11 ta sport turi bo'yicha bellashdi.

O'zbekiston yosh para sportchilari para yengil atletika, para taekvondo, "boccia", para suzish, para armrestling va para pauerlifting yo'nalishlarida yuqori natijalar ko'rsatdi. Yakunda terma jamoa 99 ta oltin, 57 ta kumush va 41 ta bronza medalni qo'lga kiritib, jami 197 ta medal bilan umumijamoa hisobida birinchi o'rinni egalladi.

Tarixiy g'alaba bilan Vatanga qaytgan delegatsiya a'zolari Toshkent xalqaro aeroportida tantanali tarzda kutib olindi. Shuningdek, poytaxtdagi Olimpiya shaharchasida g'olib va sovrindor sportchilar hamda ularning murabbiylarini taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi. Tadbirda Oliy Majlis Senati raisi Tanzila Narbayaeva, Prezidentning sport bo'yicha

vakili Odil Abdurahmonov, Sport vaziri Adham Ikramov, Yoshlar ishlari agentligi direktori Alisher Sa'dullayev, Milliy Paralimpiya qo'mitasi va Milliy Olimpiya qo'mitasi rahbariyati, sport jamoatchiligi vakillari ishtirok etdi.

Marosim davomida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tabrigi o'qib eshittirildi. Unda yosh para sportchilarning jasorati, matonati va yurt sha'nini xalqaro maydonda munosib himoya qilgani alohida e'tirof etildi. Qayd etilishicha, ushbu natija O'zbekiston para sporti tarixida rekord ko'rsatkich hisoblanadi.

Ma'lumot uchun, 2021-yilda Bahraynda o'tkazilgan IV Para Osiyo o'yinlarida O'zbekiston terma jamoasi 16 ta medal bilan oltinchi o'rinni egallagan edi. Joriy yilgi yutuq esa yosh para sportchilar salohiyati va mamlakatda adaptiv sport turlariga qaratilayotgan e'tibor natijasini yaqqol ko'rsatdi.

Bu g'alaba O'zbekiston yoshlarining kuchli irodasi, qat'iyati va yuksak maqsadlar sari intilishini yana bir bor namoyon etdi.

POLOSON

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.



Jasurbek NASIRDINOV

Andijon tumanidagi
Poloson mahallasi
yoshlar yetakchisi

44 MINGDAN OSHIQ KITOB O'QILDI

20-maktab bilan hamkorlikda "Mutolaa" platformasi orqali olib borilgan loyihalar natijasida 2166 nafar yosh bu platformaga jalb etildi. Qisqa vaqt ichida o'qilgan kitoblari soni 44 mingdan oshdi. Bu raqamlar ortida yoshlarning dunyoqarashi kengaygani, fikrlash madaniyati o'sgani, bilimga chanqoqlik kuchaygani ko'rinadi.

Mahalla yoshlari "UzChess", "Qizlar akademiyasi", "Ibrat Academy" va "Ustoz AI" kabi zamonaviy ta'lim platformalaridan faol foydalanib, turli sertifikatlarni qo'lga kiritmoqda. Bu esa ularning kelgusida oliy ta'lim muassasalariga kirishi yoki mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lishiga zamin yaratmoqda.

Maktab o'qituvchilarining aytishicha, darsga qat'iyat bilan qaraydigan, o'qishga qiziqmaydigan, kelajagi haqida jiddiy o'ylamaydigan, vaqtini besamar o'tkazadigan yoshlar keskin kamaygan. Ilmga intilayotgan o'quvchilar esa ko'paygan.

POLOSON MAHALLASI BALANSI:

Aholi:
5050 nafar;
Yoshlar:
1248 nafar;
Ayol-qizlar:
641 nafar.

"Yashil"	"Sariq"	"Qizil"
toifa:	toifa:	toifa:
975	272	15
nafar	nafar	nafar
Mahalla drayveri: ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish.		

YANGI SAHIFA

2022-yilda mahalla yoshlari DXX kubogining viloyat bosqichida 1-, respublika bosqichida 4-o'rinni, 2023-yili viloyatda 2-o'rinni, 2024-yilda viloyatda 1- va respublikada 3-o'rinni qo'lga kiritgan. Natijada mahallada 2 ta vorkaut va 2 ta stritbol maydoni barpo etildi. Bugun bu maydonlar tongdand shomgacha yoshlar bilan gavjum.

Mahallada faoliyat yuritayotgan futbol to'garagida 120 nafar yosh muntazam shug'ullanadi. To'garakka "Besh tashabbus olimpiadasi" g'oliblari va futbol maktabi murabbiyi Mahammadjon Yusupov boshchilik qilmoqda.

– Bu bolalar yaxshi sportchi, intizomli, mas'uliyatli va aniq maqsad sari intiladigan shaxslar bo'lib ulg'aymoqda. Sport ularni hayotga tayyorlayapti. Bugun to'garakka qatnayotgan har bir yosh o'z oldiga maqsad qo'ygan. Biz, murabbiylar esa ularning iqtidorini yuzaga chiqarish bilan birga, insoniy fazilatlarini ham shakllantirishga harakat qilamiz, – deydi murabbiy.



122 NAFAR YOSH BAND

Yoshlar bandligini ta'minlash yo'nalishida ham tizimli ishlar amalga oshirildi. Migratsiyadan qaytgan hamda ishsiz yoshlarning muammolari o'rganilib, ularni doimiy ish bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratildi. Natijada bir qator yoshlar korxona va muassasalarga ishga joylashtirildi.

Jumladan, Olimjon Tursunov, Muhammadali Qo'chqorov va Hotamjon Hadyatullayev "Uz-SaeMyung Co" qo'shma korxonasida faoliyat olib bormoqda. Malohatxon Abdulatipova "Xalq banki" tuman filialida ish boshladi, Barno Yunusova esa tuman poliklinikasiga ishga qabul qilindi.

Yil boshidan buyon jami 36 nafar yosh doimiy ish bilan ta'minlandi. Bundan tashqari, mahalla yetiligi bilan hamkorlikda 2025-yilda 122 nafar yosh o'zini o'zi band qilgan.

– Yoshlar bandligini ta'minlash masalasini tizimli yondashuv asosida hal etishga harakat qilayapmiz. Migratsiyadan qaytgan yoki vaqtincha ishsiz har bir yosh bilan alohida suhbatlashib, qiziqishi, imkoniyati va salohiyatini o'rganamiz va ishga yo'naltirayapmiz. Muhimi, yosh o'zini jamiyatga kerakli inson sifatida his qilishi kerak, – deydi Jasurbek Nasiridinov.

2024-2025-yillar davomida Poloson mahallasida yoshlar o'rtasida birota ham jinoyat sodir etilmadi.

Jasurbek 2025-yilda "Yilning eng namunali yoshlar yetakchisi" tanlovining viloyat bosqichida g'olib bo'ldi. Milliy kadrlar zaxirasiga kiritildi.

MAHALLADA 2 TA VORKAUT VA 2 TA STRITBOL MAYDONI BARPO ETILDI.

REJALAR PUXTA

Jasurbek Nasiriddinov yaqin yillarda mahallada zamonaviy sport markazlarini barpo etish, mavjudlarini takomillashtirish orqali yoshlar uchun yanada qulay va xavfsiz muhit yaratishni maqsad qilgan. Shuningdek, mahallaning 2 yillik aniq rivojlanish konsepsiyasini ishlab chiqish rejalashtirilgan, unda sport, ta'lim, bandlik va ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishlar o'zaro uyg'un holda belgilab olinadi. Yoshlarning bandligini ta'minlash, ularni kasb-hunar va tadbirkorlikka yo'naltirish, ijtimoiy faolligini oshirish ham asosiy yo'nalishlardan.

Jamoatchilik, mutasaddi tashkilotlar va mahalla faollari bilan hamkorlikda ishlash orqali Poloson mahallasini kelgusi yillarda yanada rivojlangan, imkoniyatlarga boy va faol yoshlar maskaniga aylantirish maqsad qilingan.

Muhammadshukur MUHAMMADJONOV,
"Yoshlar ovozi" muxbiri

Aylanma iqtisodiyot resursi

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.

Shu kabi muammolar fonida dunyo mamlakatlari chiqindilarni boshqarishda zamonaviy texnologiyalardan, xususan, chiqindilarni energiyaga aylantirish (Waste-to-Energy – WtE) modelidan keng foydalanayapti. Bu texnologiya chiqindilarni yoqish orqali ularni 70 foizgacha kamaytiradi, poligonlarga tushadigan yukni sezilarli qisqartiradi hamda energiya ishlab chiqarishga imkon yaratadi. Yoqish jarayonida hosil bo'lgan issiqlik elektr energiyasiga aylantiriladi. Zamonaviy WtE inshootlarida zararli moddalar maxsus filtrlar orqali ushlab qolingani sababli atmosfera ifloslanishi minimal darajaga tushadi.

Ammo bu texnologiyaning o'ziga xos xavflari ham bor. Chiqindilar avval to'g'ri saralanmasa, tarkibidagi toksik moddalar yonishi vaqtida dioksin, furan yoki boshqa zararli gazlar hosil bo'lishi mumkin. Agar filtrlar sifatli bo'lmasa, NOx va SOx kabi gazlarning ajralishi havoning sifatiga salbiy ta'sir qiladi. Yoqishdan qolgan kulning bir qismi esa xavfli chiqindilar sirasiga kiradi, uni maxsus inshootlarda saqlash talab qilinadi. Shuning uchun WtE texnologiyasi faqat to'liq nazorat ostida va zamonaviy ekologik standartlarga mos holda joriy etilganda foyda keltiradi.

Behruz SOLIYEV,
O'ZJOKU talabasi

Ekologiya va biz

4-5% CHIQINDI QAYTA ISHLANADI...

Chiqindilarni boshqarish mamlakat istiqboliga daxldor strategik masala. Har kuni bir inson o'rtacha 1-1,5 kg maishiy chiqindi hosil qiladi. Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, Toshkent shahridan olib chiqiladigan chiqindilar joylashtiriladigan Ohangaron poligonining hududi 59 gektar bo'lib, o'tgan asrning 70-yillaridan beri faoliyat yuritadi. Poligon hududining 98 foizi chiqindi bilan to'lgan. Bir kunda Toshkent shahrining o'zidan 2 ming tonnagacha chiqindi olib chiqiladi. Bu esa 40 ta vagon yoki 20 tonnalik 100 ta yuk mashinasi degani.

2022-yilda Kun.uz nashri bergan ma'lumotga ko'ra, davlat dasturining 292-bandida maishiy chiqindilarni yig'ishni 100 foizga, qayta ishlashni 21 foizdan 50 foizga yetkazish bo'yicha talab belgilangan. Bu vazifalarning ijro mexanizmi bo'yicha alohida dastur ishlab chiqib, kelasi 5 yilda amalga oshirish belgilangan.

O'ZA va Gazeta.uz ma'lumotlariga ko'ra, yurtimizda har yili 14 million tonna chiqindi hosil bo'lib, ularning atigi 4-5 foizi qayta ishlanadi. 2028-yilga borib, chiqindilarning 60 foizi qayta ishlanishiga erishish reja qilingan. Lekin 2028-yilga ham ko'p qolmadi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev 14-avgust kuni chiqindilarni qayta ishlashni kengaytirish chora-tadbirlari bo'yicha taqdimot bilan tanishdi. Davlat rahbari matbuot xizmati xabar berishicha, oxirgi 3 yilda sohaga 2 trilion so'mdan ziyod mablag' yo'nal-

Toshkentda chiqindilarni energiya manbayiga aylantirish bo'yicha tizimni yaratish uchun uch bosqichli yechim zarur. Birinchidan, chiqindi saralashni majburiy qilish, aholini bu borada o'qitish va rag'batlantirish tizimini joriy etish lozim. Ikkinchidan, xalqaro talablarga javob beradigan, kuchli filtr tizimlariga ega zamonaviy WtE zavodlarini qurish talab etiladi. Uchinchidan, qayta ishlash korxonalarining soni va quvvatini oshirish, plastik, metall, shisha va organik chiqindilarni alohida qayta ishlash zanjirlarini kengaytirish muhim. Germaniya, Janubiy Koreya, Shvetsiya kabi mamlakatlarda chiqindilarning katta qismi qayta ishlanadi yoki energiyaga aylantiriladi. Masalan, Shvetsiyada chiqindilarning 50 foizdan ko'prog'i energiya ishlab chiqarish uchun yoqiladi va bu mamlakat elektr energiyasi balansida sezilarli ulushga ega. Toshkent sharoitida ham bu tajribalarni bosqichma-bosqich joriy etish orqali chiqindilarni muammo emas, balki resursga aylantirish mumkin.

Germaniya, Janubiy Koreya, Shvetsiya kabi mamlakatlarda chiqindilarning katta qismi qayta ishlanadi yoki energiyaga aylantiriladi. Masalan, Shvetsiyada chiqindilarning 50 foizdan ko'prog'i energiya ishlab chiqarish uchun yoqiladi va bu mamlakat elektr energiyasi balansida sezilarli ulushga ega. Toshkent sharoitida ham bu tajribalarni bosqichma-bosqich joriy etish orqali chiqindilarni muammo emas, balki resursga aylantirish mumkin.



Ekologiya va biz

4-5% CHIQINDI QAYTA ISHLANADI...

Chiqindilarni boshqarish mamlakat istiqboliga daxldor strategik masala. Har kuni bir inson o'rtacha 1-1,5 kg maishiy chiqindi hosil qiladi. Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, Toshkent shahridan olib chiqiladigan chiqindilar joylashtiriladigan Ohangaron poligonining hududi 59 gektar bo'lib, o'tgan asrning 70-yillaridan beri faoliyat yuritadi. Poligon hududining 98 foizi chiqindi bilan to'lgan. Bir kunda Toshkent shahrining o'zidan 2 ming tonnagacha chiqindi olib chiqiladi. Bu esa 40 ta vagon yoki 20 tonnalik 100 ta yuk mashinasi degani.

2022-yilda Kun.uz nashri bergan ma'lumotga ko'ra, davlat dasturining 292-bandida maishiy chiqindilarni yig'ishni 100 foizga, qayta ishlashni 21 foizdan 50 foizga yetkazish bo'yicha talab belgilangan. Bu vazifalarning ijro mexanizmi bo'yicha alohida dastur ishlab chiqib, kelasi 5 yilda amalga oshirish belgilangan.

O'ZA va Gazeta.uz ma'lumotlariga ko'ra, yurtimizda har yili 14 million tonna chiqindi hosil bo'lib, ularning atigi 4-5 foizi qayta ishlanadi. 2028-yilga borib, chiqindilarning 60 foizi qayta ishlanishiga erishish reja qilingan. Lekin 2028-yilga ham ko'p qolmadi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev 14-avgust kuni chiqindilarni qayta ishlashni kengaytirish chora-tadbirlari bo'yicha taqdimot bilan tanishdi. Davlat rahbari matbuot xizmati xabar berishicha, oxirgi 3 yilda sohaga 2 trilion so'mdan ziyod mablag' yo'nal-



IJTIMOIIY TARMOQLAR GLOBAL XAVFSIZLIKNING BIR QISMI

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.



BOSNIYADA TINCHLIK ETIKASI

HDning yana bir tashabbusi Bosniyada amalga oshirildi. Bu yerda saylovlar arafasida siyosiy kuchlar o'rtasida taranglik kuchayib borardi. Onlayn maydonda esa yolg'on kompaniyalar, provokatsion post va botlar yordamida jamoatchilik fikrini manipulyatsiya qilish ko'paygan edi.

HD fuqarolik jamiyati institutlari bilan birgalikda "ijtimoiy tarmoq odobi axloq kodeksi"ni ishlab chiqishga ko'maklashdi. U siyosiy partiyalarni quyidagi prinsiplarni qo'llashga majbur qildi:

- raqiblarni yomonotliq qiluvchi soxta kontentni tarqatmaslik;
- etnik yoki diniy nafrat uyg'otadigan so'zlardan tiyilish;
- ommaviy yolg'on kompaniyalardan voz kechish;
- tarafdorlarga ham mas'uliyatli onlayn xulq-atvor targ'ib qilish.

Bu kodeks saylovlar chog'ida keskinlikning oshib ketishiga yo'l qo'ymadi.

BMTNING RAQAMLI TINCHLIK BO'YICHA YO'RIQNOMALARI

BMT Siyosiy va tinchlikni barpo etish departamenti maxsus hisobot e'lon qildi. Hisobotning asosiy g'oyasi – vositachilar, muzokara guruhi rahbarlari va tinchlik tashkilotlariga raqamli makondan to'g'ri foydalanish bo'yicha yo'l-yo'riq berish.

BMTning yondashuvi quyidagi savollarga javob topishga yordam beradi:

- ijtimoiy tarmoqlar taraflar o'rtasidagi ishonchsizlikni qanday kuchaytiradi?
- mojaroda dezinformatsiya qaysi rolni o'ynamoqda?
- muayyan post yoki heshteglar zo'rvonlikka qanday turtki berishi mumkin?
- tinchlik muzokaralari davom etayotgan paytda taraflarni "onlayn sulh"ga qanday undash mumkin?

Ekspertlar fikricha, kelajakda har bir tinchlik kelishuvi ikki qismdan iborat bo'ladi: **Yerda** – qurolsizlanish, siyosiy kelishuv, jamoalararo ishonch. **Onlayn** – dezinformatsiyani to'xtatish, raqamli hujumlardan voz kechish, tarmoqlarda etik muomala.

Raqamli sulhlar mojaroni butunlay tugata olmaydi, lekin uning eskalatsiya bo'lishining oldini oladi. Bu esa tinchlik muzokaralari uchun barqaror zamin yaratadi.

NIGERIYA TINCHLIK KELISHUVI

Raqamli tinchlikka doir eng qiziqarli misollardan biri Nigeriyada kuzatilgan. Mintaqadagi uchta etnik guruh o'rtasida yillar davomida zo'rvonliklar yuz berib keldi. Odatda bunday mojarolarda vositachilar jismoniy to'qnashuvlar, yer-makon bo'linishi yoki qurolli guruhlar bilan aloqalarni ko'rib chiqadi. Bu safar esa boshqacha yo'l tanlandi.

Humanitarian Dialogue markazi (HD) mojaroni o'rganar ekan, asosiy muammo onlayn muhitda ekanini aniqladi. Guruhlar vakillari Facebook va WhatsAppda bir-biriga qarshi nafratli kontent tarqatmoqda, yolg'on xabarlar esa real zo'rvonliklarga sabab bo'lmoqda edi.



Shundan so'ng tomonlar o'rtasida muzokaralar o'tkazildi va ular o'zaro "ijtimoiy tarmoqlarda tinchlik kelishuvi"ni imzoladi. Kelishuv quyidagilarni o'z ichiga olardi:

- nafratli post va agressiv chiqishlardan voz kechish;
- qarshi guruhlarini yomon ko'rsatadigan montaj videolarni tarqatmaslik;
- dezinformatsiyani aniqlash va to'xtatishda hamkorlik qilish;
- zararli kontentga chek qo'yish.

Bu kelishuv raqamli makonda kichik bo'lib ko'rinmasa-da, haqiqiy hayotda zo'rvonliklar sezilarli kamaydi. Eng katta o'zgarish guruh yetakchilarining o'z jamoalariga murojaati bo'ldi. Ular onlayn muhitning zararli ta'sirini tushuntirdi, yoshlar o'rtasida mediasavodxonlik darslarini tashkil etdi va keng tarmoqli monitoring tizimi yaratildi.

NODAVLAT TASHKILOTLAR, VOSITACHILAR VA FAOLLAR "RAQAMLI MAKON BO'YICHA DIPLOMATIYA"NI RIVOJLANTIRISHGA MAJBUR BO'LMOQDA.

DIGITAL PEACEBUILDING

Dunyoda "raqamli tinchlikni barpo etish" (digital peacebuilding) deb ataladigan yo'nalish shakllanmoqda. Bu mojarolarni yumshatish, guruhlar o'rtasidagi ishonchni tiklash va nafratni kamaytirish uchun ijtimoiy tarmoqlardan maqsadli foydalanish strategiyasidir.

Aslida bu yo'nalish hali keng tarqalgan emas. Asosan yirik xalqaro tashkilotlar, nodavlat markazlar va ayrim BMT vositachilari bunday tashabbuslarni sinab ko'rmoqda. Dastlabki natijalar ko'rsatdiki, bu metod to'g'ri qo'llansa, tinchlik muzokaralarining samaradorligini oshiradi.

Aslida bu yo'nalish hali keng tarqalgan emas. Asosan yirik xalqaro tashkilotlar, nodavlat markazlar va ayrim BMT vositachilari bunday tashabbuslarni sinab ko'rmoqda. Dastlabki natijalar ko'rsatdiki, bu metod to'g'ri qo'llansa, tinchlik muzokaralarining samaradorligini oshiradi.

Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasining bildirishicha, hozir jami 184 ta maishiy chiqindi poligonidan 39 tasi tartibga keltirilib, o'rtacha 70-80 santimetr tuproq qatlami bilan yopilgan va aholi salomatligi, atrof-muhit va ekologiyaga salbiy ta'siriga chek qo'yilgan. Yerlar tabiatga qaytarilgan. Ammo bunday yerlar dehqonchilik qilish, turar joy barpo etish kabi maqsadlarda foydalanish uchun yaramaydi. Ulardan kelajakda yana poligon sifatida yoki shu kabi ishlar uchun foydalanish mumkin xolos. Chiqindilar ta'sirida zararlangan tuproq, ehtimol, hech qachon o'zining oldingi sof holatiga qaytmaydi. Sababi toksin moddalar, batareyalar hamda ayrim plastik chiqindilarning tuproq tarkibidan to'liq yo'q bo'lib ketishi imkonsiz.

Yurtimizdagi maishiy chiqindilarning to'rtidan bir qismi qog'oz, plastik, rezina, shisha, to'qimachilik qoldiqlaridan iborat. Ularni qayta ishlash, 1 trilion so'mlik mahsulot olish mumkin. Chiqindini yoqish orqali energiya ishlab chiqarish loyihalari ko'llab-quvvatlanayapti. Xitoylik investorlar esa 6 ta viloyatda shunday zavodlar qurayapti. Bu kabi loyihalarni ko'paytirish va qulay investitsion sharoit yaratib berish ham bu yo'nalishdagi ishlarni ancha oldinga siljitadi.

Yurtimizdagi maishiy chiqindilarning to'rtidan bir qismi qog'oz, plastik, rezina, shisha, to'qimachilik qoldiqlaridan iborat. Ularni qayta ishlash, 1 trilion so'mlik mahsulot olish mumkin. Chiqindini yoqish orqali energiya ishlab chiqarish loyihalari ko'llab-quvvatlanayapti. Xitoylik investorlar esa 6 ta viloyatda shunday zavodlar qurayapti. Bu kabi loyihalarni ko'paytirish va qulay investitsion sharoit yaratib berish ham bu yo'nalishdagi ishlarni ancha oldinga siljitadi.

Yurtimizdagi maishiy chiqindilarning to'rtidan bir qismi qog'oz, plastik, rezina, shisha, to'qimachilik qoldiqlaridan iborat. Ularni qayta ishlash, 1 trilion so'mlik mahsulot olish mumkin. Chiqindini yoqish orqali energiya ishlab chiqarish loyihalari ko'llab-quvvatlanayapti. Xitoylik investorlar esa 6 ta viloyatda shunday zavodlar qurayapti. Bu kabi loyihalarni ko'paytirish va qulay investitsion sharoit yaratib berish ham bu yo'nalishdagi ishlarni ancha oldinga siljitadi.

Oybek ASHURBEKOV,
O'ZJOKU talabasi

DEZINFORMATSIYA MOJAROLARNI TEZLASHTIRADI

Internet olamida dezinformatsiya shunchalik keng tarqalganki, u ko'pincha mojaroni boshlovchi asosiy sabab bo'lib qolmoqda. Masalan, Myanmada Facebook orqali tarqatilgan yolg'on xabarlar genotsidning avj olishiga sabab bo'ldi; Suriyadagi "Oq dubulgalilar" ko'ngillilari turli axborot kampaniyalari orqali obro'sizlantirildi; Afrikaning bir necha hududlarida WhatsAppdagi xabarlardan keyin uyushtirilgan hujumlar ro'y berdi.

Bunday vaziyatda tinchlik tashkilotlarining roli yanada kuchaymoqda. **Chunki ijtimoiy tarmoq kampaniyalari ko'pincha mojarolarni to'xtatish uchun yetarli mexanizmlarga ega emas.** Shuning uchun nodavlat tashkilotlar, vositachilar va faollar "raqamli makon bo'yicha diplomatiya"ni rivojlantirishga majbur bo'lmoqda.

Zamonaviy mojarolarning ko'pi yoshlar faol bo'lgan platformalar: **TikTok, Instagram, Telegram, X (sobiq Twitter), YouTube**da sodir bo'ladi. Yoshlar internetda eng faol qatlam bo'lgani uchun ular birinchi bo'lib dezinformatsiya qurboniga ham, tinchlik targ'ibotchisiga ham aylanishi mumkin.

RAQAMLI SULHLAR MOJARONI BUTUNLAY TUGATA OLMAYDI, LEKIN UNING ESKALATSIYA BO'LISHINING OLDINI OLADI.

BU SHUNCHAKI VOSITA

Aslida ijtimoiy tarmoqlar faqat vosita. Yaxshi yoki yomon maqsadda ishlatish esa bizning qo'limizda. Bugun dunyo raqamli bo'linishlardan aziyat chekmoqda: kontentlar odamlar o'rtasida ishonchsizlik, qo'rquv va nafrat uyg'otmoqda. Ammo shu bilan birga, internet millionlab insonlarga tinchlik haqidagi g'oyalarni tarqatish, ijobiy hikoyalarni bo'lishish, mojarolarni yumshatish imkonini ham beradi.

Bu jarayonda aynan yoshlar eng muhim o'rinda turadi. Chunki ertangi kunning ijtimoiy holati bugungi yoshlarning qo'lida. Ular ijtimoiy tarmoqlardan nafrat tarqatish uchun emas, balki muhoqot, birlashuv va tinchlik uchun foydalanishni o'rganishi kerak.

Oybonu TO'XTASINOVA,
TDYU huzuridagi
M.S.Vosiqova nomidagi akademik
litseyining katta o'qituvchisi

DIYORBEB O'ZIGA ISHONADI!



Zarafshon shahridagi Yoshlik mahallasida istiqomat qiluvchi Diyorbek Muzaffarov uchun joriy o'quv yili muhim burilish davri bo'ldi. Besh yil davomida uy sharoitida ta'lim olgan Diyorbek 4-umumta'lim maktabining inklyuziv sinfga qabul qilindi.

Maktab jamoasining e'tibori va ko'llab-quvvatlovi, sinfdoshlari bilan birga o'qish imkoniyati Diyorbekning o'ziga ishonchini oshirdi. U ishtirok etayotgan vokal to'garagi esa yosh iste'dod egasining qobiliyatini yuzaga chiqarishga xizmat qildi.

– *Avval hayajonlandim, –* deydi Diyorbek Muzaffarov. – *Lekin sinfdoshlarim va o'qituvchilar meni iliq kutib oldi, tezda o'rganib ketdim. Yangi do'stlar va ustozlarimning e'tibori menga kuch berdi. Qo'shiq aytishga ishtiyolim bor. Uyda doim onam bilan mashq qilganman. Maktabdagi to'garakka qatnashib, ovozimni rivojlantirish imkonim paydo bo'ldi. Yaqinda "Sen iste'dodli" tanlovining respublika bosqichi g'olibi bo'ldim. Kelajakda o'qishni davom ettirib, yaxshi qo'shiqchi bo'lishni istayman.*

O'ZA fotomuxbiri
Siroj ASLONOV olgan suratlar.

Operatorlar o'z bayonotlarida narxlarning ko'tarilishini "xizmat sifatini yaxshilash" va "tarmoqni kengaytirish" zarurati bilan bog'lagan. Buni qaysidir ma'noda asosli sabab sifatida qabul qilish mumkin, lekin iqtisodchilar, keng jamoatchilik va sun'iy intellekt tahlillari "operatorlar o'zaro til birliktirib olgan"i haqida yozishmoqda. Agar jamoatchilik fikriga quloq tutsak, yuqoridagi bayonot bahonaga aylanadi. Shuningdek, jahonda "tarmoqlarni kengaytirish" uchun muqobil yechimlar bor. Avstraliya, Hindiston kabi davlatlarda operatorlar o'zaro kelishuv asosida yagona infratuzilmadan foydalanadi. Ya'ni hududlarda umumiy bazaviy stansiyalar qurilgan. Shu tariqa Hindistonda eng past aloqa operatorlari narxlari shakllangan (1 GB = 0.10-0.20 dollar). Qolaversa, Afrika davlatlarida ham bir qancha kompaniyalar shu tizimni yo'lga qo'yish bo'yicha ishlayapti.



Davorni. Boshlanishi 1-sahifada.

Jahongir BAXTIYOR,
O'zJOKU talabasi,
"Mahorat maktabi" tinglovchisi

MOBIL OPERATORLARNING TILI BIRMI?

Foydalanuvchilarning raqamlarga qaramligi muammosi ham bor. Plastik kartalar va shu kabi boshqa xizmatlar shaxsiy raqam bilan bog'langan. Bu esa beixtiyor raqamga "sodiq qolish"ga majbur qiladi. Buyuk Britaniya, AQSh, Janubiy Koreya kabi rivojlangan davlatlarda barcha amaliyotlar e-mail yoki FaceID orqali amalga oshiriladi. Bu tizim foydalanuvchilarga bemalol operatorni o'zgartirish imkonini beradi. Natijada kompaniyalar mijozlarining qulayligi haqida ko'proq qayg'uradi.

Bu masalada ancha keskin fikrlar bildirgan iqtisodchi Otabek Bakirov shunday yozadi: "Hozir yangi foydalanuvchilar faqat 35 ming so'mdan qimmat bo'lgan tariflarga ulana olishadi, bir oy avval 15-20 ming so'mlik oylik to'lovga ega ta'rif rejalari barcha kompaniyalarda mavjud edi. Ko'ryapsizki, eng arzon tariflar narxi 2 barobarga oshirilgan". Shu bilan birga, bugungi kunda zarurat qolmagan cheksiz daqiqa va minglab SMSlar bahonasida tariflar narxi ko'tarilganini aytadi Bakirov.

Kun.uz nashri esa doimiy bo'limgan foydalanuvchilar uchun 15-20

minglik ta'riflar bo'lishi kerakligi haqida fikr bildirgan. Tarmoqlarda yana eng ko'p yangragan da'volaridan biri shu mazmundagi fikrlardir: "Raqamni boshqa kompaniyaga ko'chirish imkoniyati chiqqanida bular tilini birliktirdi hammasi. Eng arzon ta'rif bo'yicha kelishdi. Yana kelishib, oshirib boryapti". Jamoatchilik orasida operatorlarning "til birliktirgani" haqidagi bunday da'volar ko'p.

"Raqobat qo'mitasi yashirincha narx oshirish hisoblangan bu "mehribonchiliklarga" panja orasidan qarab kelmoqda" mazmunidagi fikrlardan so'ng qo'mita mobil aloqa operatorlarining narxlarini oshirilishi asosligini o'rganish maqsadida joriy yil noyabr oyining boshida tegishli tartibda so'rovlar yuborilgani haqida o'z sahifasida ma'lum qildi. O'rganishlar davom etmoqda, adolatli xulosalar qabul qilinish-qilinmasligini esa vaqt ko'rsatadi.

Xuddi shunday holat kuzatilgan Qozog'istonni misol qilib keltirar ekan Otabek Bakirov, ular mobil operatorlarning sun'iy oshirilgan narxlarini yuzasidan aniq ayblovlar qo'ya olganini yozadi.

Narxlarning izchil va keskin oshishi aholining iqtisodiy yukini og'irlashtirgan bo'lsa-da, bu jarayonning haqiqiy sabablari hamon ochiq-oydin tushuntirilmagan. Aksiz solig'i bekor qilangani fonida narxlar pasayishi o'rniqa oshib borayotgani aloqa operatorlariga va ba'zi davlat idoralari-ga savollar tug'diradi. "Tarmoqni kengaytirish" kabi juda qisqa va tushunarsiz izohlar narxlar borasidagi savollarga to'liq javob bo'la olmaydi. Xalqaro tajriba esa sifatni oshirish va narxlarini arzonlashtirish imkoniyati mavjudligini ko'rsatadi.

O'zbekistonda mobil raqamning bank kartalari va boshqa xizmatlarga haddan tashqari bog'lab qo'yilgani foydalanuvchilarni bir operator xizmatidan foydalanishga majbur qilmoqda. Aloqa operatorlarining deyarli bir xil tarif narxlari sabab xizmat ko'rsatuvchini almashtirishdan ham ma'no yo'q.

Raqobat qo'mitasi narxlarning oshish sabablari bo'yicha aniq baho berishi, shu asosda boshqa tegishli davlat idoralari chora ko'rib, kelajakda vaziyat yaxshilanishi uchun zarur ishlar qilinishi lozim.

Bugungi qizlar

Yulduz ERGASHEVA,
JIDU talabasi

Sonngi yillarda yurtimizda qizlarning ta'lim olishi, o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishi va jamiyatdagi faol ishtirokini qo'llab-quvvatlash bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib borilyapti. Ayniqsa, STEM yo'nalishlariga qiziqish ortib, bu sohalar-da o'qiyotgan qizlar soni yil sayin ko'paymoqda.

Bugun qizlar uchun taqdim etilayotgan kurslar, tanlovlar, grantlar, forum va qo'llab-quvvatlash dasturlari ularning o'ziga ishonchini mustahkamlab, har birining o'z yo'lini topishiga xizmat qiladi. Yoshlar ishlari agentligi tasarrufida tashkil etilgan "Qizlar ovozi" klubi hamda "Qizlar akademiyasi" ayni shu maqsadga qaratilgan eng faol platformalardir. Ular qizlar bir-biri bilan yelkama-yelka ishlashi, fikr almashishi va hamkorlikda rivojlanishi uchun qulay muhit yaratyapti.

Yaqinda o'tkazilgan "Qizlar forumi" buni yana bir bor isbotladi. Minglab qizlar bir maydon atrofida jam bo'lib, tajriba, ilhom va rag'bat oldi. Tadbirda turli sohalar-da muvaffaqiyatga erishgan xotin-qizlar o'z hayotiy hikoyalari, yutuqlari va eng muhimi, saboqlari bilan o'rtoqlashdi.

"Qizlar ovozi" klubi rahbari Marjona Jo'raqulova esa tashabbuslar boshida turib, yo'lbohschi bo'lib kelmoqda.



Hozir men boshqarayotgan "ChangeMakers" loyihasi ham shu maqsadga xizmat qiluvchi dasturlardan biri. Unda 100 nafar xotin-qiz bir oy davomida birgalikda o'z ustida ishlaydi va yangi, foydali ko'nikmalarni shakllantirishga harakat qiladi. Loyiha onlayn shaklda olib borilgan bo'lsa-da, samaradorligi yuqori.

Ishirokchilarga har kuni kichik, lekin muntazam vazifalar berib boramiz: ertalabki badantarbiya, ilmiy maqola o'qish, foydali podkastlar tinglash, ingliz tilidan bilimlarni mustahkamlash, fikrlashni rivojlantiruvchi mashqlar bajarish – bularning barchasi qizlarning kun tartibiga foydali odat sifatida singib boradi.

Eng muhim yo'nalishlardan biri – grantlar bo'yicha darslar. Bu mashg'ulotlarni xalqaro grantlar sohibi bo'lgan Marjona Jo'raqulova o'tkazadi. Qizlar bu orqali grantlarga ariza topshirish jarayoni, talablar, motivatsion xat yozish, portfolioni to'g'ri shakllantirish kabi ko'nikmalarni o'rganib, kelajakdagi katta imkoniyatlarga tayyorlanadi.

Bugungi kunda qizlarimiz uchun yaratilayotgan sharoitlar ularning kelajakka ishonch bilan qadam qo'yishi, o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishi uchun mustahkam tayanchdir. Qizlar birlashayotgan, bir-biriga tayanayotgan, o'z orzulari sari dadil intilayotgan bu jarayon – jamiyatimiz taraqqiyotining yorqin ko'zgusi.



NOSTALGIYA

Xotirangizdagi eng yomon lahzalar ham vaqt o'tgan sari qadrlil bo'la boshlaydi. Bu odatda nostalgiya kayfiyati deyiladi. Shveysariyalik tibbiyot talabasi Yohannes Hofer yunoncha "nostos" (qaytish) va "algos" (og'riq) so'zlarini birlashtirib, ilk bor "Nostalgiya" atamasini qo'llagan. U birinchi marta 1688-yilda "Dissertatio Medica de Nostalgia, oder Heimweh", ya'ni "Sog'inch yoki uy sog'inchi haqida tibbiy dissertatsiya" nomi bilan nashr etilgan bo'lib, Hofer bu tuyg'uni chet elga yuborilgan va o'z vataniga qaytish istagida bo'lgan yosh askarlar, talabalar va uy xizmatkorlarini azoblaydigan "miya kasalligi" deb ta'riflagan.

Amerikalik nazariyotchi Svetlana Boym 2001-yil chop etgan "Sog'inch kelajagi" kitobida nostalgiyaning ikki turini tasvirlab bergan. Birinchisi – qayta tiklandigan nostalgiyada o'tmishni qayta yaratish va alohida vaqtlarni qayta tiklash istagi bo'ladi. Bu nostalgiya qayg'u, pushaymonlik va sog'inish hissi bilan bog'liq. Deylik, hozirgi texnologiya zamonida o'zimiz xohlagan lahzalarini yoki insonlarni video, sur'atlar orqali ko'rishimiz va qisman o'sha vaqtda his qilingan tuyg'ularni yana bir bor uyg'otishimiz mumkin. Hozir urfga aylangan yana bir misol: sun'iy intellekt orqali eski suratlarini video shaklida harakatga keltirish imkoniyati. Ikkinchi tur – reflektiv nostalgiya mehr-muhabbat, qulaylik va quvonch bilan bog'liq.

COVID-19 pandemiyasi insoniyatni ruhiy jihatdan og'ir sinovdan o'tkazdi. Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, 2020-2021-yillarda depressiya holatlari global miqyosda 25 foizga oshgan. Ijtimoiy izolyatsiya, yaqinlarni yo'qotish, ishsizlik va kelajakdagi noaniqlik va shu kabilar avj oldi. Shu sabab odamlar o'tmishga qaytib, nostalgiya orqali xotiralarini tabiiy psixologik mudofaa mexanizmi sifatida ishlatdi. Psixologlar bu holatni "pandemiya nostalgiyasi" deb atadi. Masalan, Shimoliy Dakota shtati universiteti professori Kley Rautlejning tadqiqotlariga ko'ra, pandemiya davrida odamlarning 50 foizdan ortig'i yoshlikdagi musiqa va filmlarni qayta ko'rib chiqish orqali tasalli topgan. Tadqiqotda aytilishicha, nostalgiya miyada dopamin – baxt gormonini ishlab chiqarishni kuchaytiradi, bu esa stress va pessimistik fikrlarni kamaytiradi. Bundan tashqari, pandemiya davrida ijtimoiy tarmoqlar (masalan, Instagram va TikTok) nostalgiya uchun yangi maydon bo'ldi. #pandemiyaoldin kabi trendlar avj oldi.

Katta avloddan doim "Paxta terishga borgan paytlarimizda..." degan sog'inchli hikoyalarni eshitamiz, garchi bu majburiy mehnat bo'lsa-da. Ular aslida paxtani emas, o'sha yoshlik damlarini qo'msaydiz.

Bugungi kunlarimiz, hatto eng oddiyarlari ham kelajakda shirin nostalgiyaga aylanadi.

Guljahon XO'JAYEVA,
O'ZDJTU talabasi,
"Mahorat maktabi" tinglovchisi



ChatGPT qancha suv "ichadi"?

Yangi texnologiyalar yangi imkoniyatlar yaratyapti. Biroq ko'pchilik nomoddiy ko'ringan bu innovatsiyalar, SI, chatbotlar ortida qanday murakkab va katta data markazlari borligini bilmaydi.

Ma'lumotlarga ko'ra, AQShdagi 100 megavattli data markazi kuniga 2 million litr suv sarflaydi. Amerikalik tadqiqotchilar sun'iy intellekt ishlash jarayonida sarflanadigan suv miqdorini hisoblab chiqqan. Tadqiqotda aytilishicha, ChatGPT 100 ta savolga javob berish uchun 1 litr suv "ichadi". Yirik data markazlarida suv iste'molining asosiy qismi serverlarni sovitish uchun ketadi. Serverlar ishlashi natijasi-da katta hajmda issiqlik ajraladi va uni barqaror darajada ushlab turish uchun bug'lantirishga asoslangan sovitish tizimlari qo'llaniladi. Ushbu tizimlarda suv sovitish minoralarida bug'larnadi va issiqlik tashqi muhitga chiqariladi, natijada suvning katta qismi qayta ishlatilmaydi. Ayrim yirik data markazlarining suvdan foydalanish ko'rsatkichi 1 kilovatt/soat elektr energiyasi uchun 1-2 litr atrofida ekani qayd etilgan.

Sun'iy intellekt texnologiyalarining kengayishi data markazlaridagi hisoblash yuklamasini oshirmoqda. SI modellari o'qitish va ulardan foydalanish jarayonida serverlarni sovitish uchun suv sarflanadi. Tadqiqotlarda SI bilan bog'liq suv sarfi alohida emas, balki butun infratuzilma ishlashi doirasida baholanishi kerakligi ham ta'kidlanadi.

O'zbekistonda ham data markazlar bozori tez o'syapti, 2024-yilda taxminan 317 million dollarni tashkil etgan. Yangi yirik data markazlari loyihalari Buxoro va Qoraqalpog'istonda ham amalga oshirilmoqda.

Data markazlarini qurish muhim hisoblanganida, mamlakatimizdagi suv tanqisligini ham inkor eta olmaymiz.

Suv tanqisligidan aziyat chekuvchi davlatlar reytingidagi 164 talik ro'yxatda O'zbekiston 25-o'rinni egallagan. Shu sabab bunday markazlarni qurishda suv muammosiga alohida e'tibor berish kerak. Raqamli texnologiyalar vaziri Sherzod

Shermatovning ma'lumotiga ko'ra, Qoraqalpog'istonni O'zbekistonning data markazlar makoniga aylantirish uchun chora-tadbirlar ko'rib chiqilmoqda. Hududdagi qiymati 100 million dollardan ortiq loyihalarga imtiyozlar berildi. Xitoyning "Shanghai LinkWise Data Intelligence Co" kompaniyasi ham O'zbekistonda 2 ta data markazi qurish rejasini ko'rib chiqmoqda.

O'zbekistonda data markazlari qurilishi raqamli iqtisodiyot uchun zarur, lekin ularga sarflanadigan suv masalasini ham e'tibordan chetda qoldirmaslik kerak.

Durdona SAYFITDINOVA,
O'ZMU talabasi,
"Mahorat maktabi" tinglovchisi

OAV NIGOHIDA

Toshkent davlat yuridik universitetida "Yuridik ta'limdagi islohotlar OAV nigohida" mavzusida press-tur tashkil etildi. Tadbir O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-noyabrdagi yuridik ta'lim va ilm-fanni isloh qilishga qaratilgan farmoni ijrosini ta'minlash hamda ushbu yo'nalishda amalga oshirilayotgan o'zgarishlarni keng jamoatchilikka yetkazish maqsadida o'tkazildi. Unda ommaviy axborot vositalari vakillari va jamoatchilik vakillari ishtirok etdi.

Press-tur doirasida o'tkazilgan brifingda universitet rektori Baxshillo Xodjayev Prezident farmonining mazmuni va ahamiyati, yuridik ta'lim tizimini takomillashtirish borasida belgilangan ustuvor vazifalar, Toshkent davlat yuridik universitetida olib borilayotgan islohotlar haqida atroflicha ma'lumot berdi. Shuningdek, zamonaviy va xalqaro talablar darajasidagi huquqshunos kadrlar tayyorlash yo'lida amalga oshirilayotgan ishlarga to'xtalib o'tildi.

Brifing davomida universitetda xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, qo'shma ta'lim dasturlarini joriy etish, xalqaro reytinglarda ishtirok etish, o'quv jarayonini raqamlashtirish, Registrator ofisi faoliyati, shaf-follikni ta'minlash hamda talabalar uchun yaratilgan qulayliklar haqida ham ma'lumot berildi. Transformatsi-



ya jarayonlari va zamonaviy boshqaruv yondashuvlari muhim yo'nalish sifatida qayd etildi.

Press-tur davomida jurnalist va bloggerlar universitetning O'quv-uslubiy boshqarmasi, Axborot resurs markazi, imtihon xonalari, TSUL.SHOP sport zali, sud zali, situatsion markaz, Yuridik klinika, atoqli huquqshunoslar nomidagi xonalar hamda kafedralar faoliyati bilan tanishdi. Ta'lim jarayonining ochiqligi va infratuzilmaning zamonaviyligi amaliy misollar orqali namoyish etildi.

Tadbir doirasida matbuot anjumani ham o'tkazilib, unda ishtirokchilar o'z fikr va mulohazalari bilan o'rtoqlashdi hamda universitet rahbariyatiga savollar yo'llandi. Press-tur yakunida mehmonlarga universitetning esdalik sovg'alari topshirildi.

Bu tadbir yuridik ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar haqida ochiq va to'liq axborot berish hamda OAV bilan hamkorlikni mustahkamlashda xizmat qildi.

YOSHLAR OVOZI

BIZ – KELAJAK BUNYODKORIMIZ!

Muassis:
O'zbekiston yoshlar ittifoqi
Markaziy Kengashi

Bosh hamkor:
O'zbekiston Respublikasi
Yoshlar ishlari agentligi

Bosh muharrir:
Hamza ABDULLAYEV

Bosh muharrir o'rinbosari:
Shahobiddin LUQMON

Mas'ul muharrir:
Muhammadshukur MUHAMMADJONOV

Fotograf:
Xolida MUSULMON

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-dekabrda № 0242 raqami bilan qayta ro'yxatdan o'tgan. Gazeta materiallari tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi. Tahririyat manzili: 100000, Toshkent, Mustaqillik shoh ko'chasi, 2. Telefon: (71) 233-22-16.

[/yoshlarovozi](#)

[/yoshlarovozi](#)

[/yoshlarovozi.uz](#)

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi boshmaxonasida, A-2 formatda chop etildi. Hajmi – 2 bosma taboa. Korxona manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. Indekslar: 203, 3203. Bahosi kelishilgan narxda. Buyurtma G-1208, Adadi – 10395. Bosishga topshirish vaqti – 21.00. Topshirildi – 20.00

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.

